

**SHAHRISABZ TUMANINING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHIDA TOG'
VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA EKOTURIZMNING AHAMIYATI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedraasi oqituvchisi

Suyarqulov Nizomiddin Maxmatqulovich

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo 'nalishi

4-kurs talabasi

Xakimov Qosim Mamamurat o'g'li

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Shahrisabz tumanida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda hududning tabiiy-geografik sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Shahrisabz tumanining tog'li hududlari, xususan G'elon qishlog'i va Hisorak suv ombori hududlarining ekoturizm uchun qulay imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati, xususan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ekoturizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani yoritib berildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Shahrisabz hududi tabiiy resurslarga boyligi, tog'li landshaftlari va ekologik muhitining tozaligi bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Ekoturizm, Shahrisabz tumani, turizm infratuzilmasi, tabiiy resurslar, Hisorak suv ombori, G'elon qishlog'i, tog'li hududlar, ekologik muhit, turizm salohiyati, iqtisodiy rivojlanish.*

Abstract : *This article analyzes the opportunities for the development of ecotourism in the Shahrisabz district, its socio-economic importance, and the natural and geographical conditions of the region. The study examines the mountainous areas of the Shahrisabz district, particularly the village of Gelon and the Hisorak reservoir, as favorable locations for ecotourism development. It also highlights the state policy of the Republic of Uzbekistan aimed at developing tourism, especially the emphasis on ecotourism development in the "New Uzbekistan Development Strategy." The results of the study show that the Shahrisabz region has significant potential for ecotourism development due to its rich natural resources, mountainous landscapes, and clean ecological environment.*

Keywords: *Ecotourism, Shahrisabz district, tourism infrastructure, natural resources, Hisorak reservoir, Gelon village, mountainous areas, ecological environment, tourism potential, economic development.*

Аннотация: *В данной статье анализируются возможности развития экотуризма в Шахрисабзском районе, его социально-экономическое значение и природно-географические особенности региона. В ходе исследования были изучены горные территории Шахрисабзского района, в частности село Гелон и территория Гиссаракского водохранилища, как благоприятные объекты для развития экотуризма. Также освещена государственная политика Республики Узбекистан в*

сфере развития туризма, в частности особое внимание развитию экотуризма в стратегии «Новый Узбекистан». Результаты исследования показали, что территория Шахрисабза обладает большим потенциалом для развития экотуризма благодаря богатству природных ресурсов, горным ландшафтам и чистоте экологической среды.

Ключевые слова: *Экотуризм, Шахрисабзский район, туристическая инфраструктура, природные ресурсы, Гиссаракское водохранилище, село Гелон, горные территории, экологическая среда, туристический потенциал, экономическое развитие.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qashqadaryo viloyatining qadimiy va betakror shaharlaridan biri hisoblangan Shahrisabzda ham turizm, ayniqsa ekologik turizm salohiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, xususan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan ustuvor vazifalar asosida amalga oshirilmoqda. Shahrisabz o‘zining boy tarixiy merosi, noyob tabiiy landshaftlari, toza ekologik muhiti hamda tog‘li hududlarda joylashgan madaniy va tarixiy obyektlari bilan mahalliy hamda xorijiy sayyohlar e‘tiborini tortib kelmoqda. Aynan shu jihatlar hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, turistlarni noyob tarixiy-madaniy hamda me‘moriy meros obyektlari bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, manzilli turizm xizmatlarini ko‘rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, viloyatni turli madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkaziladigan markazga aylantirish orqali hududga turistlar oqimini yanada ko‘paytirish hamda ularning hududda bo‘lish davomiyligini uzaytirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilingan. Shuningdek, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholi sonini ko‘paytirish ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, hududda mavjud bo‘lgan arxeologik, etnografik, tarixiy, me‘morchilik hamda madaniy meros obyektlari bo‘yicha yangi ma‘lumotlarni to‘plash va ilmiy jihatdan mukammallashtirish zarurati ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham bu hududning tarixiy ahamiyatini alohida ta‘kidlab, “Bu vohada qadimda Naxshab, Nasaf, Kesh degan buyuk shaharlar bo‘lganini, shunday taxalluslar bilan diniy va dunyoviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz haqida soatlab gapirish mumkin”, deb ta‘kidlagan edi [1]. Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyi YUNESKO hamkorligida keng nishonlangani ham bu hududning tarixiy ahamiyati va xalqaro miqyosdagi nufuzini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi kunda Shahrisabz Yevropaning Rim, Parij, Afina, Afrikaning Qohira, Yaqin Sharqdagi Vavilon va Quddus, Markaziy Osiyodagi Samarqand, Qarshi, Marv, Termiz hamda Toshkent kabi tarixiy shaharlar qatorida tilga olinmoqda.

Shahrisabz shahrining tarixiy hududi YUNESKOning “Umuminsoniyat merosi” ro‘yxatiga kiritilgani ham bu hudud zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Ma‘lumki, har bir viloyat, tuman va shaharning o‘ziga xos rivojlangan turizm yo‘nalishlari mavjud.

Shahrisabz esa qadimdan tarixga boy shahar sifatida sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan. Xorijlik sayyohlarning hududga tashrif buyurishi Shahrisabzda turizm sohasining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ekoturizm mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm sayyohlarni o‘ziga jalb qiluvchi eng istiqbolli va samarali turizm yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ekoturizm — bu insonlarning dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashish hamda ma’rifiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida doimiy yashash joyidan chiqib, tabiat qo‘yniga qiladigan sayohatlaridir. Bunda sayyohlar nafaqat tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘ladilar, balki atrof-muhitni o‘rganish, uni muhofaza qilish va tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, ekoturizm insonlarga maroqli dam olish hamda ekologik bilimlarni oshirish imkonini beradi.

Shahrisabz tumanida ekoturizm rivojlanib bormoqda. Jumladan, hududdagi Oqsuv daryosi va Hisorak suv ombori ekoturizm uchun muhim obyektlardan biri hisoblanadi. Hisorak suv ombori Qashqadaryoning irmog‘i bo‘lgan Oqsuv daryosi o‘zanida barpo etilgan bo‘lib, Shahrisabz tumanining Miroqi shaharchasidan taxminan 1,5 kilometr uzoqlikda joylashgan. Ushbu suv ombori 1983–1988-yillarda qurilgan. Suv omborining qurilishidan asosiy maqsad Shahrisabz, Chiroqchi, Kitob hamda Yakkabog‘ tumanlaridagi qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish orqali hosildorlikni oshirishdan iborat bo‘lgan. Foydalanishga topshirilgan yili sug‘orish uchun belgilangan maydon 46,8 ming gektarni tashkil etgan. Suv omborining umumiy hajmi 170 million kub metr bo‘lib, uning foydalaniladigan qismi 161,6 million kub metrni tashkil etadi. Bugungi kunda suv ombori atrofida dam olish hududlari tashkil etilgan bo‘lib, bu maskan har yili ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ekologik turizm mamlakatimizda rivojlanib borayotgan va istiqbolli sohalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Asarda ekoturizm katta iqtisodiy daromad keltirishi mumkinligi alohida ta’kidlanadi [2]. Shuningdek, A. Axmedov va A. Hamidovning “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish” asarida Shahrisabz hududining ekologik holati hamda tabiiy resurslari haqida batafsil ma’lumot berilgan. S. Azamovanning “Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati” nomli monografiyasida esa ekoturizmning ijtimoiy va tarbiyaviy jihatlari keng yoritilgan. Muallif ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish ekoturizm taraqqiyoti uchun muhim omil ekanini ta’kidlaydi [3].

Tadqiqotlar Shahrisabz tumanidagi asosiy ekoturistik hududlar — G‘elon qishlog‘i hamda Hisorak suv ombori misolida olib borildi. G‘elon qishlog‘i dengiz sathidan 1800–2000 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, o‘zining toza havosi, boy flora va faunasi hamda betakror tog‘ manzaralari bilan ajralib turadi. Ushbu qishloq qariyb 2000 yillik tarixga ega bo‘lib, Shahrisabz tuman markazidan taxminan 100 kilometr uzoqlikda joylashgan. Shahrisabz tuman hududi Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida, Hisor tog‘ tizmasi etaklarida joylashgan. Bu hududdan oqib o‘tuvchi Oqsuv, Qashqadaryo, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Tamshush hamda Miroqi daryolari tog‘ yonbag‘irlarida turli

jarliklar va tabiiy landshaft shakllarini hosil qilgan. Shuningdek, Miroqi tog‘ etaklarida qora marmar konlari mavjud bo‘lib, hudud tabiiy boyliklarga ham nihoyatda boydir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, balki ekologik madaniyatni shakllantirish hamda aholini bandlik bilan ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Shahrisabz hududida ekoturizm obyektlarining mavjudligi, tabiiy resurslarning boyligi hamda tog‘li hududlarning kengligi ushbu sohaga investitsiya jalb qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan qarorlar asosida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ekologik hududlarda infratuzilmani rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa tog‘li va chekka hududlarda yashovchi aholini ish bilan ta‘minlash hamda ularning daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi [5].

Ekoturizmni yanada rivojlantirish uchun davlat qo‘riqxonalari, milliy tabiat bog‘lari, o‘rmon xo‘jaliklari, tog‘li va cho‘l hududlari hamda suv obyektlari atrofida turizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, “Tabiatga sayohat” kabi ekoturizm dasturlarini ishlab chiqish, ekohududlarda yo‘l-transport, kommunal va turizm infratuzilmalarini rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion turizm xizmatlarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Turistik yo‘nalishlar bo‘ylab yo‘l ko‘rsatkichlari va sayyohlar uchun zarur axborot tizimlarini yaratish ham ekoturizm rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekoturizm obyektlarida zamonaviy energiya tejamkor hamda ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash ham muhimdir [6].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ekoturizmni rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Ekoturizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik muhitni muhofaza qilish, aholi bandligini ta‘minlash hamda hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli ekoturizmni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev – “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O‘zbekiston” T. 2022 y.
2. Shavkat Mirziyoyev – “ Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” O‘zbekiston T 2022y
3. Axmedov A. Hamidov A. “ Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish” T O‘qituvchi 1994.
4. Azamova S.A. “ Ekologik globallashtirish sharoitida O‘zbekiston umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati” Monografiya/Qarshi/2025.
5. Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari //g.f.n. ilmiy darajasni olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2011.

6. Hasanov I.A., G'ulomov P.N., Qayumov A.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2 qism) Toshkent-2009.